



THE CONTENT AND ANALYSIS OF THE WORK 'ME'YOR UL-AXLOQ'

Husan Suvonqulov

Associate Professor of the "Social Sciences" Department

Gulistan State University

Gmail: xusansuvankulov@gmail.com

Gulistan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Abdurahmon Sayyoh, "Al-Isloh" journal, Me'yor ul-axloq, ethics, Jadidism, socio-ethical views.

Received: 02.09.25

Accepted: 03.09.25

Published: 04.09.25

Abstract: This article analyzes the socio-ethical views of Abdurahmon Sayyoh (Abdurahmon Tashkandi) and his editorial activities. Particular attention is given to the "Al-Isloh" journal, which addressed religious-legal issues, family relations, codes of conduct, and socio-economic problems through its Q&A sections. The article also examines the moral principles outlined in his work "Me'yor ul-axloq" and their significance in the educational system of the Jadid era.

"ME'YOR UL-AXLOQ" ASARINING MAZMUNI VA TAHLILI

Husan Suvonqulov

GulDU "Ijtimoiy fanlar" kafedrası dotsenti

G-mail: xusansuvankulov@gmail.com

Guliston, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Abdurahmon Sayyoh, "Al-Isloh" jurnali, "Me'yor ul-axloq", axloq, jadidchilik, ijtimoiy-axloqiy qarashlar.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdurahmon Sayyoh (Abdurahmon Toshkandiy)ning ijtimoiy-axloqiy qarashlari hamda uning muharrirlik faoliyati tahlil qilinadi. Xususan, "Al-Isloh" jurnalidagi diniy-huquqiy masalalarga oid savol-javoblar, oilaviy munosabatlar, muomala odobi va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yoritishdagi faoliyati yoritilgan. Shuningdek, muallifning "Me'yor ul-axloq" asaridagi axloqiy tamoyillar hamda jadidlar davri ta'lim-tarbiyadagi o'rni ilmiy asosda tadqiq etilgan.

ОТКРЫТИЕ КРАСОТЫ В УМАХ МОЛОДЫХ ЛЮДЕЙ ЧЕРЕЗ ГАРМОНИЮ МУЗЫКИ И ФИЛОСОФИИ

Хусан Сувонкулов

Доцент кафедры «Социальные науки»

Гулистанского государственного университета

Эл. почта: xusansuvankulov@gmail.com

Гулистан, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Абдурахман Сайях, журнал «Аль-Ислах», «Мияр уль-ахлак», нравственность, джадидизм, социально-этические взгляды.	Аннотация: В статье рассматриваются социально-этические взгляды Абдурахмана Сайяха (Абдурахмана Ташкентского), а также его издательская деятельность. Особое внимание уделено анализу рубрики вопросов и ответов в журнале «Аль-Ислах», освещающей религиозно-правовые вопросы, семейные отношения, нормы общения и социально-экономические проблемы. Кроме того, исследуются моральные принципы, изложенные в труде «Мияр уль-ахлак», и их значение в системе образования периода джадидов.
---	--

Kirish

XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida jadidchilik harakati muhim o'rin tutdi. Ushbu davrda ma'rifatparvar ziyolilar xalqni ilm-ma'rifatga, milliy uyg'onishga chorlab, matbuot orqali o'z qarashlarini targ'ib etdilar. Shunday ma'rifatparvarlardan biri Abdurahmon Sayyoh (Abdurahmon Toshkandiy) bo'lib, u nafaqat noshir, balki diniy-axloqiy masalalarda ham faol qalam tebratgan ziyolilardan sanaladi. Uning muharrirligida chiqqan "Al-Isloh" jurnali o'sha davrda diniy, huquqiy va ijtimoiy muammolarni yoritib, keng jamoatchilikni ma'naviy-ma'rifiy jihatdan tarbiyalashga xizmat qildi. Shuningdek, muallifning "Me'yor ul-axloq" asari musulmon axloqiy merosini ilmiy asosda izohlab, ta'lim-tarbiyada odob-axloq masalalarini dolzarb masala sifatida ko'tarib chiqqan. Shu bois, Abdurahmon Sayyoh faoliyati Turkiston jamiyatining ijtimoiy-axloqiy rivojlanishini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Abdurahmon Sayyoh faoliyati davomida "Al-Isloh" jurnalini shu qadar musulmonlarni dasturul amal qo'llanmasi bo'lishiga harakat qildiki, unda ko'tarib chiqilayotgan savollar omma hayot tarzini hamma jabhalarini o'zida qamrab olgandi. Shunday turmush tarziga oid savollardan biri bo'lmish, qo'shnilar orasida oziq-ovqat mahsulotlarini qarzga olishga bag'ishlangan bo'lib, unga quyidagicha javob berilgan:

Qarz berish va uning savobi – sadaqa qilish va uning savobidan afzalroq va ortiqroqdir. Abu Amoma r.a. dan shunday keladiki: "Muhammad s.a.v. aytdilar: Men jannatning eshigiga

sadaqaning savobi 10 savob, qarzning savobi 18 savob deb yozilganini ko'rdim va Jabroil a.s. dan buning boisini so'radim. Jabroil a.s., zero qarz faqatgina muhtojga beriladi. Shu boisdan qarzda fazilat ko'p, dedilar". Yana Muhammad s.a.v. buyurdilarki, "qo'shnining qo'shnida 10 ta haqqi bordir. Birinchisi: qarz so'rasa, imkon qadar qarz berish". Qo'shnidan qarz so'rashning odobi va me'yorlari borasida maqola[1] ning davomida so'z yuritilgan.

Abdurahmon Sayyoh oilaviy masalalar, er-xotin munosabatlari[2] kabi masalalarni ham ko'tarib chiqqan bo'lib, bunda quyidagicha savollar berilib, unga javoblar ham berilib borilgan. Ya'ni "Bir erkak ayoliga taloq siyosatini qilib, bor otang yo onangnikiga ketaver, ko'zimga ko'rinma, deb yuborsa, taloq tushadimi?" – degan savolga javoban: "Bor ketaver, otangning uyiga bor, ko'zimga ko'rinma, seni qo'ydim, degan iboralar taloqqa oid lafzlar emas. Bil'aks kinoyatan taloqning bir jihatidandir. Ushbu so'zlar bilan xoh g'azab va siyosat holatida bo'lsin, xoh taloq muzokarasida, xoh xursandchilikda, xoh hazillashib turganda, niyatimiz taloq tushmaydi. Mabodo er bu so'zlar bilan 1, 2 yoki 3 taloqni niyat qilsa, urning niyatiga qarab taloq tushadi".

Nafaqa borasidagi masalaga ham jurnalning savol-javob[3] ruknida Abdurahmon Sayyoh ulamolarimizdan asosli maqolalarni keltirib o'tadi. "Xutbai nikohda 4 shar'iy ish vojibdir: 1. Shar'iy besabab ayolini urmaslik. 2. Boy nafaqasiz tashlab ketmaslik. 3. Ayolining ijozatisiz ustiga xotin olmaslik. 4. Ayolining ijozatisiz safarga olib chiqmaslik. Ayol kishiga g'urbatda qiyinchilik ko'p bo'ladi. Yana so'ragan ekanlarki, mabodo 6 oydan ozroq vaqtda kelsa, nafaqa darkormi? – deya so'ralgan savolga javob ruknida quyidagicha javob berilgan:

6 oy xoh to'liq, xoh to'liq emas baribir nafaqa oyat va hadis bilan sobit bo'lgandir. Nafaqa ihtibos (uyida, ushlab turish)ning jazosidir. Bu shundayki, ayol o'zini eriga "hibs" qilib topshirdimi, erga nafaqa haqdir. Alloh taolo aytdi: "Erga ularning rizqi va kiyintirishi" (vojibdir). Boshqa oyat va hadislar ham bor".

Abdurahmon Sayyoh insonlar orasidagi muomala[4] ga oid turli masalalarni ham "Al-Isloh" jurnalida ravshanlashtirib borgan desak adashmagan bo'lamiz. Xususan nohaqlikni bilib turib, qasam ichgan insonlardan saqlanish shariatdan darkormi? – degan savolga quyidagicha javob bilan bayon qilinadi: "Nohaqlikni bila turib ont ichishlikning 2 turi bor. Misol uchun, shu tarzda qasam ichish orqali Allohning bandasiga ziyon yetsa, bu qasam ittifoqan qasami g'amusdir. Biroq qasam ila musulmon kishiga ziyoni tegmasa ham qasami g'amus bo'lishligiga ixtilof bor. G'amus qasam esa gunohi kabiralardan hisoblanadi. Buning isboti o'laroq Buxoriy r.a. rivoyat qilgan ushbu hadis bordir: "Gunohi kabiralar – Alloh taologa shirk keltirish, ota-onasiga oq bo'lish, odam o'ldirish va qasami g'amusdir". Muhammad s.a.v. "Kimki yolg'ondan qasam ichsa, Alloh taolo uni do'zahga kirgizadi", dedilar. Bu insonlar fosiqlar hisoblanib, ular to tavba qilmaganlaricha, ulardan saqlanishlarimiz darkor. Zero mufsidlar bilan birodarlik qilish shariatimizda man etilgandir.

Javob tarzida berilgan maqolaning davomida “Nohaq qasam ichganlarga shariatning hukmi qanday bo‘ladi?” – degan savolga javob o‘laroq hanafiy mazhabida shariat doirasida tavba va istig‘for etishlari vojibdir. Kafforat vojib bo‘lolmaydi, deb javob beriladi”.

Abdurahmon Sayyoh xalqning kundalik hayotdagi og‘riqli nuqtasi borasida o‘z qarashlarini bildirib, “Ihtikor”[5] nomli maqolada bunga ham ommani e‘tiborini qaratishni xohlaydi. Ya‘ni “Ihtikorning ma‘nosi xalq hayoti uchun kerak narsalarni sotib olib, saqlab bu narsalarga muhtojlik paydo bo‘lganda qimmat narxda sotish. Bu holat shariat bo‘yicha haromdir. Ayrimlar gunohi kabira deyishgan. Ushbu katta urush sababli ko‘p narsalarning bozori o‘zgarib qimmatlashdi. Bu tabiiy holdir. Harajatning ortiqqligi, ishning esa kamligi bularga omil bo‘ladi. Biroq bozor xoinlari, vijdonsizlarning yomon hatti-harakatlari ila narxlarni ko‘tarishi ommani qiynab qo‘ydi. Bu kabi vijdonsiz savdogarlar xalqqa kerakli narsalarni sotib olib, omborlarda berkitib, saqlay boshladilar. Shu bois narxlar nihoyatda ko‘tarildi. Boylar og‘irlikni, faqirlar ocharchilikni boshdan o‘tkaza boshladi, omma bundan aziyat ko‘ra boshladi. Ushbu urush tufayli qancha xonadon qiyinchilikka giriftor bo‘ldi. Ayrim ojiz va faqir insonlarning 4, 5 ta o‘g‘illari Vatan himoyasiga ketgan qariyalari uy qo‘riqlab qolganlar. Erkaklari ketgach qiyinchilikka giriftor bo‘lgan xalqning og‘irini yengil qilish o‘rniga insofdan yiroq savdogarlar ularning mashaqqatini yanada og‘irlashtirmoqdalar. Xalqning nochorligidan ularning cho‘ntaklari pulga to‘lmoqda, insoniyatga xos bo‘lmagan darajada o‘zlarini la‘natga mustahiq etadilar”. Maqolaning davomida esa bu holatning shariatdan nojoiz ekanligiga asoslar keltiriladi. Bu maqola orqali xalqning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli achinarli holatda ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Natijalar va muhokama. Abdurahmon Sayyoh qarashlaridan shuni ko‘rishimiz mumkinki, uning muharrirligidagi jurnal faoliyati asnosida xalq o‘zining istagan savoliga shariatga mos keladigan javobni olgan. Bu esa, jurnalning xalq orasida obro‘ qozonishiga sabab bo‘lgan. Abdurahmon Sayyoh mazhab masalasiga alohida diqqat bilan yondashgan. Har bir shariy masalada islom dinining hanafiya mazhabiga oid fatvo manbalaridan javob berilishini yoqlagan. Bundan esa barcha maqolalar zamiri hanafiya mazhabiga muvofiq, degan noto‘g‘ri xulosa chiqmasligi kerak. Chunki boshqa mazhab manbalariga tayanish holatlari ham uchraydi. Bunday vaziyatda darhol munozara uyushtirilib, tanqidiy va tahliliy maqolalar nashr qilingan. Nashrda bobiylik mazhabiga qarshi ruhda bayon qilingan materiallarning berilishi esa uning mazhablar borasidagi munosabatiga oydinlik kiritadi.

Abdurahmon Sayyoh hozirga vaqtda ham dolzarbligi bilan ahamiyatli bo‘lgan: o‘tganlar xotirasini yod etishga qaratilgan bir qator marosimlar, “Bibiseshanba”, “Mushkulkushod”, avliyolarga nazr etish va shariy nikohda qiz tomonidan kuyov tomonga pul va oziq-ovqat talab qilish odati, qorilarning Qur‘on tilovati evaziga pul olishi, taloq, nohaqdan qasam ichganning

hukmi, qarz berishning fazilati, ihtikor, halol va harom singari muammolarga Qur'on oyatlari, hadislar, fatvo kitoblariga asoslanib jurnalda yoritishga harakat qilgan.

Abdurahmon Muhammad Sodiq o'g'li Toshkandiy o'tgan asr boshlarida matbuotda "Sayyoh" taxallusi bilan ijod qilgan ma'rifatparvar ziyolilardan biri bo'lib, u XIX asr oxiri XX asr boshlarida noshirlik qilish bilan bir qatorda odob-axloq, diniy va ma'rifiy sohalarga doir qator kitoblar ham yozgan. Jumladan, birgina "Me'yor ul-axloq" asarining oxirgi qismida Abdurahmon Toshkandiyning muallifligida nashrga tayyorlangan "Makkai mukarrama tarixi", "Bayt ul-muqaddas tarixi", "Arabning qadimiy tarixi", "Bani Isroil tarixi" kabi o'nga yaqin asarlar nomlari zikr qilinganini ko'ramiz. Bundan tashqari u siyosat, islom, tarix, ma'naviyat sohalarida nashr qilingan ko'plab kitoblarga noshirlik qilgan. Qolaversa, uning o'zi ham necha kitoblar yozgani ma'lum.

"Abdurahmon Toshkandiyning Turkiston aholisi savodxonligini oshirish, mahalliy va dunyoviy xabarlardan, ijtimoiy-siyosiy jarayonlardan xabardor etishga qaratilgan faoliyati uning bosh muharrirligi ostida 1915-1917 yillar oralig'ida Toshkentda chop etilgan "Al-Isloh" jurnali faoliyatida ham kuzatish mumkin. Ushbu jurnal faoliyati nafaqat Turkiston o'lkasida shuningdek, qo'shni musulmon o'lkalarida ham mashhur bo'lgan. Jurnalda islom, shariat va fiqhiy masalalar, odob-axloq muammolari, mashhur diniy asarlardan tarjimalar, o'lka hayotiga doir bahs-munozalarlar nashr etib borilgan"[6].

"Abdurahmon Sayyoh qalamiga mansub asarlardan biri "Me'yor ul-axloq" asari o'rta asrlarda yashab o'tgan islom olamining yirik allomalari ilgari surgan g'oyalar asosida yozilgan bo'lib, odob-axloqqa oiddir. Mazkur asarda muallif axloqning mohiyati xususida fikr yuritir ekan avvalo Qur'oni karim, hadisi sharif hamda imom G'azzoliy, Faxriddin Roziy kabi allomalar asarlariga ishora qiladi. Asarda muallif tomonidan an'anaviy musulmon odob-axloq masalalariga yangicha yondashuvlarning bildirilishi alohida ahamiyatga ega"[7].

"Kitob ikki qism (hissa)dan iborat bo'lib, har ikki qismi yettitadan bobni o'z ichiga olgan. Kitobning birinchi qismi asosan axloqning nazariy masalalariga bag'ishlangan. Kitobning ikkinchi qismi esa, axloqning amaliy masalalariga bag'ishlangan bo'lib, unda inson axloqi va axloqning ijobiy hamda salbiy kategoriyalariga misollar asosida tavsiflar berilgan. Kitob so'ngida inson axloqi va ruhiyati uchun xos bo'lgan o'ttiz ikkita xislat tavsiflangan. Unda islomiy an'analardan kelib chiqqan holda ibodat, taqvo, shukr, duo, sabr kabi tushunchalarga izoh berish bilan birga, inson axloqining muhim sifatlari bo'lgan adab, afu, shafqat, sahovat va ehson, tavoze' va ehtirom, shijoat, diyonat, vafo, sodiqlik kabi kategoriyalarni tahlil qiladi"[8]. "Me'yor ul-axloq asari odob-axloqqa bag'ishlangan bo'lib, ikki bo'limdan iborat. Har bir bo'lim yettitadan bobga ajratilgan.

Birinchi bo'limdagi boblar:

1. Axloqning insonlarga xosligi.

2. Axloqning buyukligi.
3. Axloqning mafhumi.
4. Axloqning fazilati.
5. Axloqning yomonligi.
6. Axloqning yomonlik ta'sirida buzilishi.
7. Yaxshi ahloqning ijro etuvi va yomon axloqning yo'qolishi"[9].

“Me'yor ul-axloq risolasi 1912-yilda Toshkentda G'ulom Hasan Orifjonov matbaasida toshbosma uslubida chop etilgan”[10]. “Risola ikki hissa (qism)dan tuzilgan bo'lib, har ikkala qism yettitadan bobdan iborat. Asarning birinchi qismi asosan axloqning nazariy masalalarini, ikkinchi qismi esa, axloqning amaliy masalalarini o'z ichiga olib, bunda shaxs axloqi va axloqning ijobiy va salbiy tomonlariga misollar asnosida tavsiflar berilgan. Asar oxirida inson axloqi va ruhiyatida aks etadigan o'ttiz ikkita xislat tavsiflab berilgan. Bunda islomiy an'analardan kelib chiqqan holda ibodat, taqvo, shukr, duo, sabr kabi bir qator tushunchalarni sharhlash barobarida, shaxs axloqining ahamiyatli fazilatlari bo'lmish adab, afu, shafqat, sahovat va ehson, tavoze' va ehtirom, shijoat, diyonat, vafo, sadoqatlilik singari kategoriyalarni tahlil qiladi”[11]. “Asar oxirida keltirilgan ma'lumotga qaraganda, Abdurahmon Toshkandiy “Me'yor ul-axloq” risolasining uchinchi va to'rtinchi qismlarini ham nashrga tayyorlagan”[12].

Umumiy fikr sifatida shuni aytish mumkinki, “Me'yor ul-axloq” asari bayonida Turkiston o'lkasidagi ta'lim dargohlarida musulmon bolalarning ta'lim-tarbiyasi borasida odob-axloq mavzusini sodda va tushunarli holda bayon qilish ayni maqsad qilinganligini ko'rish mumkin. Ya'ni, XX asr boshlari nuqtai nazaridan mahalliy hamda keng yoyila boshlagan rus-tuzem maktablarida o'rta asrlarda yaratilgan odob-axloq borasidagi an'anaviy manbalar o'quv dasturlaridan olib tashlangan bir vaqtda, ularda ilgari surilgan g'oyalar hamda islomiy an'analardoirasida, mahalliy ma'rifatparvarlar orqali davr nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda qayta ishlov berilgan odob-axloqqa doir darsliklariga talab katta edi.

Jadidlar faoliyati tadqiqi bilan muntazam shug'ullanib, bu haqda muntazam ravishda maqolalar chop ettirayotgan Sirojiddin Ahmedovning Munavvar Qori Abdurashidxonov “Tanlangan asarlari”ga yozilgan so'zboshida va “Guliston” jurnali 2000 yil 4-sonidagi “Yo'qolgan odam” sarlavhali maqolasida Abdurahmon Sayyoh hamda u muharrirlik qilgan “Al-Isloh” jurnali to'g'risida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Bunday fidoyi ma'rifatparvarlarning savobli ishlarini qanchalik gapirmaylik oz, albatta. Munavvarqori va Abdurahmon Sayyoh Turkiston xalqi uchun fidokorona ishlar olib bordi. Ular nafaqat dunyoviy ilmlar, balki diniy ilmlar bobida ham e'tirof etilgan olimlar edi.

“Abdurahmon Sayyoh ijtimoiy axloq mavzusiga o'zi yashagan davrdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlardan kelib chiqib fikr bildirgan. Ijtimoiy-axloqiy masalalarni Mahmudxo'ja Behbudiy,

Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy singari o'sha davrning ilg'or ma'rifatparvarlari ham Turkiston jamiyatini halokatdan, qoloqlikdan ilm-fan taraqqiyotiga olib chiquvchi vosita deb bildilar. Olg'a surgan fikr-mulohazalarida "go'zal odob-axloqqa yetishishning yo'li bu hukamolar ya'ni zamon olimlari ta'limini, bilimni olishdir" degan xulosaga keladilar. Masalaga shu jihatdan yondashgan holda tadqiqot ob'ekti bo'lmish "Me'yor ul-axloq" asarining 1912 yilda Toshkentda "G'ulom Hasan Orifjonov" matbaasining toshbosma nashri asosida insonlar odob-axloqining ayrim jihatlariga bag'ishlangan birinchi va ikkinchi qismlari tarjima qilindi"[13].

Xulosa. Abdurahmon Sayyohning ilmiy-ma'rifiy faoliyati, xususan uning muharrirligida nashr etilgan "Al-Isloh" jurnali va "Me'yor ul-axloq" asari Turkiston jamiyatining ijtimoiy-axloqiy hayotida muhim o'rin tutgan. U diniy-huquqiy masalalarni yoritish, oilaviy va ma'naviy qadriyatlarni targ'ib qilish orqali xalqni ezgulikka, odob-axloqqa undagan. Uning qarashlarida hanafiya mazhabi tamoyillariga asoslanish, ijtimoiy adolatni ta'minlash, halol mehnat va insoniylik g'oyalari ustuvor bo'lib, bu jihatlar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Shunday qilib, Abdurahmon Sayyohning merosi nafaqat tarixiy, balki zamonaviy axloqiy-ma'naviy tarbiya jarayonlari uchun ham boy tajriba manbasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Савол-жавоблар // Ал-Ислож. –Тошкент, 1916. – № 13. – Б. 406-414.
2. Савол-жавоблар // Ал-Ислож. –Тошкент, 1916. – № 13. – Б. 406-414.
3. Савол-жавоблар // Ал-Ислож. –Тошкент, 1916. – № 20. – Б. 548-549.
4. Савол-жавоблар // Ал-Ислож. –Тошкент, 1916. – № 14. – Б. 439-443.
5. Мулло Олимжон ал Боруций. Ихтикор // Ал-Ислож. –Тошкент, 1916. – № 21. – Б. 558-560.
6. A.Asatulloev. Abdurahmon Sayyoh Toshkandiyning ijtimoiy-axloqiy konsepsiyasi. Fal. fanlari doktori (PhD) ...dis. – Toshkent, 2023. – B. 84.
7. O'sha asar. – B. 84.
8. O'sha asar. – B. 84.
9. معيار الاخلاق. غلام حسن آرفجانوف متبعی. تاشکند، ۱۹۱۲ – عبدالرحمان سیاح تاشکندی (Abdurahmon Sayyoh Toshkandiy-Me'yor ul-axloq. G'ulom Hasan Orufjonov matbaasi. Toshkent, 1912) – B.1.
10. O'sha asar – B. 1.
11. O'sha asar – B. 146.
12. O'sha asar – B. 166.
13. A.Asatulloev. Abdurahmon Sayyoh Toshkandiyning ijtimoiy-axloqiy konsepsiyasi. Fal. fanlari doktori (PhD) ...dis. – Toshkent, 2023. – B. 86.